

Касб фаолиятига оид саволлар

1. Siyosiy-huquqiy sohada qanaqa xalqaro reyting va indekslarni bilasiz? Misol keltiring.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada qanaqa xalqaro reyting va indekslarni bilasiz? Misol keltiring.
3. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston o'rnini yaxshilash bo'yicha qanday hujjatlar qabul qilingan?
4. Matbuot erkinligi indeksi (Press Freedom Index) nimani baholaydi?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida nizomga ko'ra Adliya vazirligi siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini oshirish bo'yicha tizimli va izchil choralar ko'rish sohasida qanday funktsiyalarga ega?
6. Boshqaruv sifati indikatorlari (Worldwide Governance Indicators) o'z ichiga qanday indekslarni qamrab olgan?
7. O'zbekiston Respublikasida davlat organlari faoliyatida jamoatchilik nazorati qaysi normativ-hujjatlar bilan tartibga solinadi?
8. Respublika hududlarida huquq ustuvorligining ta'minlanganlik holatini reyting asosida baholovchi Hududlarning huquq ustuvorligi indeksi haqida nimalarni bilasiz?
9. Hokimiyat institutlarining shaffofligiga nimalar kiradi?
10. O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan inson huquqlariga oid asosiy xalqaro hujjatlar.
11. O'zbekiston Respublikasida shikoyat berish mexanizmlari qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinadi?
12. Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi kimlarga berilgan?
13. BMT bosh organlari qaysilar?
14. Universal xalqaro tashkilotlar deganda nimani tushunasiz?
15. O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik masalalar qaysi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
16. Inson huquqlari bo'yicha majburiyatlarning uch turi mavjud deb hisoblanadi. Bular - inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va bajarish. Bu majburiyatlar haqida so'zlab bering.
17. Xalqaro huquqning qanday tamoyillari bor?
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-sonli farmoni bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Kontseptsiyasida nimalar nazarda tutilgan?
19. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining qaysi normalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan?
20. Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida inson huquqlari sohasida qanday fundamental xalqaro shartnomalar va xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?
21. Ayollar huquqlarini himoya qilish sohasida qanday normativ-huquqiy hujjatlarni bilasiz?
22. Xalqaro huquqda davlatlarning suveren tenglik printsiptining mohiyatini tahlil qiling.
23. O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonlari qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinadi?
24. Xalqaro huquqda nizolarni tinch yo'l bilan hal etish printsiptining mohiyati va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositalarini tahlil qiling.

25. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining birinchi yo'nalishidagi Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishda qanday vazifalar qo'yilgan?

26. Xalqaro huquqda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik printsiplarining mohiyatini tahlil qiling.

27. BMT tashkil topishining tarixiy ildizlari va u qanday maqsadlarni ko'zlaydi?

28. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining maqsadi va ustuvor vazifalari qanday?

29. Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi mazmun-mohiyati nimadan iborat va u qanday omillarni o'z ichiga qamrab oladi?

30. Davlat yurisdiksiyasi tushunchasi.

31. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlariga nimalar kiradi?

32. "Biznes yuritish" ("Doing Business") xalqaro hisoboti qaysi haqida?

33. Byudjet ochiqligi indeksi (Open Budget Index) qanday maqsadda tashkil etilgan va mazkur xalqaro indeksning mohiyati nimadan iborat?

34. Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of Law Index) nimani anglatadi?

35. Jismoniy shaxslar xalqaro huquq sub'ekti hisoblanadimi?

36. Xalqaro huquqiy javobgarlik nima?

37. Huquqiy davlatning asosiy belgilari nimadan iborat?

38. Davlat deganda nima tushiniladi?

39. Korruptsiyani qabul qilish indeksining maqsadi nima va u nimaga asoslanib tayyorlanadi?

40. Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashining asosiy vazifalari nimalardan iborat?